


## XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI




Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilning 1-aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 49 109 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 26 882 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 54,7 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (48,7 %), savdo (17,5 %), sanoat (9,8 %) va qurilish (5,0 %) sohalariga to'g'ri keldi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)





Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2024- yil 1-aprel holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
<b>Jami</b>	<b>49 109</b>	<b>100,0</b>	<b>26 882</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23 929	48,7	10 943	40,7
sanoat	4 795	9,8	2 386	8,9
qurilish	2 439	5,0	1 371	5,1
savdo	8 586	17,5	5 460	20,3
tashish va saqlash	682	1,4	377	1,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 984	4,0	1 167	4,3
axborot va aloqa	380	0,8	231	0,9
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	408	0,8	338	1,3
boshqa faoliyat turlari	5 906	12,0	4 609	17,1

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilning 1-aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 30 974 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 19 080 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 61,6 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) savdo (27,7 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (18,7 %) sanoat (15,5 %) va qurilish (7,9 %) sohalariga to'g'ri keldi.



**Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
(2024- yil 1-aprel holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
<b>Jami</b>	<b>30 974</b>	<b>100,0</b>	<b>19 080</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 794	18,7	3 141	16,5
sanoat	4 795	15,5	2 386	12,5
qurilish	2 439	7,9	1 371	7,2
savdo	8 586	27,7	5 460	28,6
tashish va saqlash	682	2,2	377	2,0
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 984	6,4	1 167	6,1
axborot va aloqa	380	1,2	231	1,2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	408	1,3	338	1,8
boshqa faoliyat turlari	5 906	19,1	4 609	24,1

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilning 1-aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) Jizzax shahri 8 302 ta (26,8 %), Sharof Rashidov 4 287 ta (13,8 %), G'allaorol 2 826 ta (9,1 %) va Zomin 2 665 ta (8,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi..



Jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2024- yil 1-aprel holatiga, birlik)

	2024- yil 1-aprel holatiga ro'yxatga olinganlar soni	shuningdek, 2024- yil yanvar-mart oylari davomida:	
		yangi tashkil etilganlar	tugatilganlar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>49 109</b>	<b>1 166</b>	<b>483</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8 375	251	101
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	2 834	59	22
Baxmal	4 159	100	39
G'allaorol	5 498	127	54
Sharof Rashidov	6 563	122	45
Do'stlik	2 184	32	23
Zomin	4 744	107	42
Zarbdor	3 872	90	32
Mirzacho'l	2 439	43	33
Zafarobod	2 207	45	23
Paxtakor	2 450	56	29
Forish	2 708	87	37
Yangiobod	1 076	47	3

2024- yilning yanvar–mart oylarida jami 1 166 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 1 126 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 251 tasi, yoki 21,5 %) hamda G'allaorol (127 tasi, yoki 10,9 %) Zomin (107 tasi, yoki 9,2 %), Sharof Rashidov (122 tasi, yoki 10,5 %), Forish (87 tasi, yoki 7,5 %), Baxmal (100 tasi, yoki 8,6 %), Zarbdor (90 tasi, yoki 7,7 %), Paxtakor (56 tasi, yoki 4,8 %), Arnasoy (59 tasi, yoki 5,1 %), Zafarobod (45 tasi, yoki 3,9 %), Do'stlik (32 tasi, yoki 2,7 %), Mirzacho'l (43 tasi, yoki 3,7 %) va Yangiobod (47 tasi, yoki 4,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Ro'yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar bo'yicha taqsimlanishi  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)


	2024- yil 1-aprel holatiga ro'yxatga olinganlar	shuningdek, 2024- yil yanvar-mart oylari davomida:	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>30974</b>	<b>1 154</b>	<b>461</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8 302	251	100
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1 197	58	21
Baxmal	2 150	100	33
G'allaorol	2 826	125	50
Sharof Rashidov	4 287	122	43
Do'stlik	1 264	29	22
Zomin	2 665	107	42
Zarbdor	1 592	85	29
Mirzacho'l	1 236	43	32
Zafarobod	1 019	45	21
Paxtakor	1 522	55	29
Forish	2 135	87	36
Yangiobod	779	47	3

2024- yilning yanvar–mart oylarida (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) jami 1 154 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 1 114 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 251 tasi, yoki 26,8 %), Sharof Rashidov (122 tasi, yoki 13,8 %), G'allaorol (125 tasi, yoki 9,1 %) va Zomin (107 tasi, yoki 8,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1-aprel holatiga 27 485 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan xususiy korxonalar 4 863 ta, oilaviy korxonalar 2 665 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 19 510 ta, aksionerlik jamiyatlari 20 tani tashkil etdi.



**Ro'yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 27,8 foizi savdo, 20,2 foizi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 27,8 foizi sanoat va 7,5 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohaslariga to'g'ri keldi.

Hisobot davrida 461 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.** 2024- yil 1-aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 177 tani tashkil etdi.


2024- yilning 1-aprel holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 177 tani tashkil etdi. Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapital ishtirokida 70 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 41 ta, Rossiya Federatsiyasi 37 ta, Buyuk Britaniya 14 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 15 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.



**Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar kesimidagi soni, birlikda**

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 104 tasi qo'shma korxonalar, 73 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

2023-2024- yillar yanvar–mart oylari holatiga xorij mamlakatlari rezidentlarining kapitali ishtirokida ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni – 9 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,6 foizga o'sigani kuzatildi. Bunda, Turkiya Respublikasi – 2 ta, Rossiya Federatsiyasi – 1 ta, Xitoy Xalq Respublikasi– 2 ta hamda boshqa davlatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 4 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar  
(2024- yil 1-aprel holatiga, birlikda)

	2024- yil 1-aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotganlar soni	shundan	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>177</b>	<b>104</b>	<b>73</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	64	34	30
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	6	3	3
Baxmal	6	5	1
G'allaorol	10	6	4
Sharof Rashidov	21	12	9
Do'stlik	6	2	4
Zomin	14	9	5
Zarbdor	3	2	1
Mirzacho'l	3	1	2
Zafarobod	7	3	4
Paxtakor	10	8	2
Forish	22	16	6
Yangiobod	5	3	2

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida 64 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 36,2 %), Forish tumanida 22 ta (12,4 %), Sharof Rashidov tumanida 21 ta (11,9 %), Zomin tumanida 14 ta (7,9 %), G'allaorol tumanida 10 ta (5,6 %) hamda Do'stlik tumanlarida 6 ta (3,4 %) ni tashkil etadi.



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi  
(2024- yil 1-aprel holatiga)

	Korxonalar soni, birlik	Jamiga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>177</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16	9,0
Sanoat	101	57,1
Qurilish	10	5,6
Savdo	23	13,0
Tashish va saqlash	8	4,5
Yashash va ovqatlanish	3	1,7
Axborot va aloqa	5	2,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	0,6
Boshqa faoliyat turlari	10	5,7


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 177 ta korxonaning 101 tasi (57,1 %) sanoat, 16 tasi (9,0 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 23 tasi (13,0 %) savdo, 10 tasi (5,6 %) qurilish, 8 tasi (4,5 %) tashish va saqlash, 3 tasi (1,7 %) yashash va ovqatlanish, 1 tasi (0,6 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 5 tasi (2,8 %) axborot va aloqa hamda 10 tasi (5,7 %) boshqa sohalarga to'g'ri keldi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklari bilan)

2024- yil 1-aprel holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 15 807 tani tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 90,7 foizga kamaygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 269 tasi (27,0 %) Jizzax shahriga, 2 082 tasi (13,2 %) Sharof Rashidov, 1 478 tasi (9,4 %) G'allaorol va 1 344 tasi (8,5 %) Zomin tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 15 807 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3 098 tasi (19,6 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 5 452 tasi (34,5 %) savdo, 2 358 tasi (14,9 %) sanoat, 1 352 tasi (8,6 %) qurilish 1 163 tasi (7,4 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 373 tasi (2,4 %) tashish va saqlash, 251 tasi (1,6 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 214 tasi (1,4 %) axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1 546 tasi (9,8 %) boshqa faoliyat turlari hissalari to'g'ri keldi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmoqlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohaslariga to'g'ri keldi.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha taqsimoti, % da (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)



2024- yilning yanvar–mart oylarida yangi 1 114 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilgan. Bu esa 2023- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 8,1 foizga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (241 ta), G'allaorol (122 ta), Sharof Rashidov (117 ta), Zomin (105 ta), Baxmal (98 ta), Forish (86 ta) va tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Zarbdor (81 ta) Arnasoy (57 ta), Paxtakor (51 ta), Yangiobod (44 ta), Mirzacho'l (42 ta), Zafarobod (42 ta) hamda Do'stlik (28 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko'pi savdo (321 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (230 ta), sanoat (320 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (86 ta) sohalari, shuningdek boshqa faoliyat turlari (69 ta) hissalariga to'g'ri keldi. Eng kam esa, qurilish (41 ta), axborot va aloqa (26 ta), tashish va saqlash (6 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (15 ta) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024- yilning 1-aprel holatiga 2 665 tani tashkil etdi, ulardan 1 455 tasi yoki 54,6 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining 493 tasi yoki 33,9 foizi sanoat, 470 tasi yoki 32,3 foizi savdo, 236 tasi yoki 16,2 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 114 tasi yoki 7,8 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 15 tasi yoki 1,0 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 10 tasi yoki 0,7 foizi axborot va aloqa, 12 tasi yoki 0,8 foizi qurilish, 4 tasi yoki 0,3 tashish va saqlash hamda 101 tasi yoki 6,9 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keldi.



**Xususiy korxonalar soni**  
(2024- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2024- yil 1-aprel** holatiga ko'ra 4 863 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 77 taga yoki 1,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2 591 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 509 taga yoki 16,4 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2024- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 101 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 34 taga yoki 25,2 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**  
(2024- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni **2024- yil 1-aprel** holatiga ko'ra 19 510 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 059 taga yoki 111,8 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 592 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 747 taga yoki 6,1 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan as'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 866 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 80 taga yoki 110,2 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

